



fanlari ilmiy tadqiqot instituti

# UZLUKSIZ TAYLIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2020, № 6

*Risbay*  
**Bosh muharrir**

Jurnal 2001 yildan nashr qilina boshlangan.  
O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda № 0101-tartib raqami bilan qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan maqolalardan iqtibos keltirilganda «Uzluksiz ta'lim» jurnalidan olinganligi ko'rsatilishi lozim.

## Tahrir hay'ati:

*Sherzod* SHERMATOV  
*Uzoqboy* BEGIMQULOV  
*Alisher* UMAROV  
*Nargiza* RAXMANQULOVA  
*Xolboy* IBRAGIMOV  
*Shavkat* QURBONOV  
*Roxatoy* SAFAROVA  
*Islom* ZOKIROV  
*Dono* G'ANIYEVA  
*Lobar* QARAXANOVA  
*Dusmurod* DJURAYEV

## Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,  
Furqat ko'chasi,  
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34  
(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim\_jurnal@mail.ru  
liya\_2305@mail.ru

## TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **B.B. Sobirov**  
Pedagog kadrlarning malaka oshirish jarayonlarini takomillashtirish: xorij tajribalarini qiyosiy o'rganish asosida
- 8 **N.O. Azmedova**  
Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish va boshqarish
- 12 **B. Nazarova**  
Uzluksiz pedagogik-psixologik jarayonlar asosida sog'lom tafakkurni shakllantirish
- 15 **M.O. Norbasheva**  
Uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha yoshdagi bola shaxsini rivojlantirishda muloqotning o'rni
- 20 **Sh. Avazov, F. Saydamatov**  
Uzluksiz ta'lim tizimida barqaror taraqqiyot borasidagi ta'lim mazmunida barqaror rivojlantirish prinsiplari va qonunlari
- 24 **I.O. Shamsiyeva**  
Darslarni loyihalash texnologiyasini ishlab chiqish va joriy qilish dasturi
- 28 **M.Y. Egamnazarov**  
Uzluksiz ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish
- 32 **N.X. Mirzagobilov, R.N. Mirzagobilov**  
O'quvchi-talabalarga mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va uning matematik tafakkur rivojiga ta'siri
- 36 **O. Musayev**  
Jismoniy tarbiyadan umumrivojlantiruvchi mashqlarni uzviylashtirish metodikasi
- 40 **P.X. Ilyuzpaev**  
Проблемы ранней профориентации дошкольников и школьников

## UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 45 **D.Sh. Shavkiyeva**  
Raqamli texnologiyalar sharoitida o'quvchi-yoshlarga geymifikatsiya yordamida ingliz tilini o'rgatish
- 48 **Z. Sangirova**  
Steam – o'quvchilarda izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishda vosita sifatida
- 52 **L.A. Oxunov**  
Ta'lim tizimida virtual borliq va unga munosabatni shakllantirish bosqichlari

## MA'NAVIY TARBIYA

- 56 **S.E. Bobomurodov**  
Jismoniy tarbiya darslarida o'quvchi-yoshlarining axloqiy sifatlarini shakllantirish
- 60 **X.S. Raximova**  
Eshitirishida nuqson bo'lgan bolalarni mustaqil faoliyatga tayorlashning zamonaviy yondashuvlari

## KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 65 **E.A. Akramova**  
Oilaviy psixologik xizmat – uzluksiz va uzviy ta'lim jarayoni sifatida
- 69 **M.M. Xolmuxamedov**  
Professional ta'lim va kasbga o'rgatish tizimida ta'lim natijalari (learning outcomes) asosida ta'limni modernizatsiya qilish
- 74 **M.S. Maxmudova**  
Mustaqil ta'lim – bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish omili sifatida
- 78 **S. Salimova**  
Biolog-bakalavrlarning kasbiy kompetensiyasini baholash usullari
- 82 **I.G. Mamajonov**  
Kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlashda uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvini ta'minlash
- 87 **Sh. Xasanova**  
Uzluksiz ta'limda darslardan tashqari ishlarni tashkil etish – o'quvchi-yoshlar kompetensiyasini shakllantirish omili sifatida
- 91 **G. Ergasheva, A. Azizova**  
Совершенствование методики оценки биологической компетентности учащихся в старших классах
- 95 **И.Р. Чориев**  
Технология развития готовности к педагогическому проектированию в процессе непрерывного повышения педагогических кадров

## ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ – ДАВР ТАЛАБИ

- 99 **G.A. Norimova**  
Striming texnologiyalari asosida talabalarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish
- 103 **Z.P. Karimova**  
Современные методические технологии в обучении иностранным языкам
- 108 **Н. Джумаева**  
Реализация лингвокультурологического подхода при обучении русскому языку



## BIOLOG-BAKALAVRLARNING KASBIY KOMPETENLIGINI BAHOLASH USULLARI

**S.SALIMOVA,**  
BuxDU o'qituvchisi

*Maqolada OTMda baholash vositalari fondini shakllantirish hamda talabalar kompetensiyalarini baholash metodikasini takomillashtirish muammosi yoritilgan. Shuningdek, talabalar kasbiy kompetentligini baholashning innovatsion usullari va ulardan foydalanishga oid metodik tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** talaba, kompetensiya, baholash, metodika, kompetentli-yo'naltirilgan topshiriqlar, portfolio, keyslar, vaziyatli topshiriqlar, loyihalar, kurs ishlarini jamoalarda bajarish, idoraviy, rolli, tashkiliy-faoliyatli.

*В статье рассматриваются вопросы формирования фонда средств оценивания в высшей школе и совершенствования методов оценки компетенций студентов. Также представлены инновационные методы оценки профессиональной компетентности студентов и методические рекомендации по их использованию.*

**Ключевые слова:** студент, компетентность, оценка, методика, компетентностно-ориентированные задачи, портфолио, кейсы, ситуационные задачи, проекты, курсовая работа в командах, ведомственная, ролевые, организационно-деятельностный.

*The article deals with the formation of a fund of assessment tools in higher education and the improvement of methods for assessing the competencies of students. Also presented are innovative methods for assessing the professional competence of students and guidelines for their use.*

**Key words:** student, competence, assessment, methodology, competence-oriented tasks, portfolios, cases, situational tasks, projects, coursework in teams, departmental, role, organizational and activity.

Zamonaviy ta'lim makoni bitiruvchilarning yuqori ilmiy yutuqlarga ega bo'lgan, kasbiy muammolarni hal etishga qodir raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlash talabini qo'ymoqda. Ta'lim sifati va samaradorligini o'rganish monitoring - ta'lim jarayonini doimiy ilmiy asosli tashhislash va va bashoratlash, zamonaviy metodikalar va metodik uslublardan foydalanish orqali amalga oshirilishi mumkin. Talabalar kasbiy kompetentligini baholashning innovatsion usullari mazkur muammoning samarali echimini topish imkonini beradi. Baholashning innovatsion vositalariga quyidagilarni kiritish mumkin: kompetentli-yo'naltirilgan topshiriqlar, portfolio, keyslar, vaziyatli topshiriqlar, loyihalar, kurs ishlarini jamoalarda bajarish, idoraviy, rolli, tashkiliy-faoliyatli. Quyida ushbu



usullarga to'xtalib o'tamiz:

Kompetentli-yo'naltirilgan topshiriqlar kompetentli yondashuv talablariga javob bera oladigan OTM talabalarini kasbiy tayyorlash sifatini nazorat qilishning eng ob'ektiv usuli sifatida ko'rib chiqiladi. Uning mazmun-mohiyati fanni o'rganish davri mobaynida talabaning o'zlashtirishini nazorat qilib borishdan iborat. Bunda o'quv kursining qator nisbatan mustaqil bo'lgan mantiqan yakunlangan bloklarga bo'lish hamda ular bo'yicha nazorat ishlarini o'tkazish ko'zda tutiladi.

OTMlarida o'quv jarayonini kompetentli-yo'naltirilgan topshiriqlar asosida tashkil etish quyidagilarga erishish imkonini beradi:

– talabalarning o'quv va ilmiy-tadqiqot ishlarini baholashning yuqori differentsiatsiyaga ega bo'lishi hisobiga ularning ta'lim dasturlarini sifatli o'zlashtirishlariga nisbatan motivatsiyaning oshishi;

– talabalarning muntazam ravishdagi olib boradigan mustaqil va ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish;

– professor-o'qituvchilarning ta'lim jarayoni sifatini boshqarish hamda o'quv fanlari ta'lim dasturlarini o'zlashtirish sifatini ta'minlash tizimini yaratish sohasidagi kasbiy kompetentligi darajasini takomillashtirish;

– bitiruvchilarning ta'lim xizmatlari xalqaro bozorida akademik safarbarliga va raqobatbardoshligini oshirish.

*Portfolio* – talabaning erishgan yutuqlarini ma'lum bir mezonlar asosida aks ettiruvchi ruknlardan foydalanuvchi odatda uning individual o'quv ishlari yig'indisi hisoblanadi. Portfolio talabaning bilimni baholash bilan bog'liq bo'lgan eng sara ishlari, shuningdek fanni o'zlashtirish borasidagi yutuqlarini tasdiqlovchi tegishli hujjatlardan iborat bo'lishi ham mumkin. Portfolio talabaga nimani tanlash, uning shaxsiy va kasbiy rivojlanish dinamikasini baholash imkonini beradi.

*Keys-metodi* real hodisa tassavurini taqdim etadi. O'quv materiali talabaga muammolar (keys) ko'rinishida taqdim etiladi hamda ularning echimini topish maqsadida faol va ijodiy ishni tashkil qilishni talab etadi. Keys-metoddan ta'lim jarayonida foydalanish talabalarning faollashuvini ta'minlaydi, ularning o'quv motivatsiyasini oshiradi, vaziyatlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi, shuningdek axborot bilan ishlash, masalalarni echish variantlarini modellashtirish, shaxsiy nuqtai nazarini bayon qilish, o'z-o'zini nazorat qilish va baholash imkonini beradi.

Mazkur metodning asosiy elementlari quyidagilardir:

– maqsadlarni individual, juft, jamoaviy tarzda belgilash;

– o'quv ishini jamoaviy rejalashtirish;



- rejani jamoaviy amalga oshirish;
- axborot va o‘quv materialini mustaqil tanlash;
- o‘quv jarayonini tashkil etishning o‘yin tarzidagi shakllari.

Muammoni rivojlanuvchi kooperatsiya metodi yordamida hal etish uchun 6-8 kishidan iborat kichik guruhlar tuziladi. Har bir mayda guruh shunday shakllantirilishi kerakki, unda «lider», «g‘oya beruvchi», «vazifa taqsimlovchi», «opponent», «tadqiqotchi» bo‘lishi lozim. Har bir mayda guruh muammoni echish bo‘yicha o‘zining taklifini taqdim etgandan so‘ng munozara boshlanadi va unda echimning haqqoniyligini isbotlash lozim bo‘ladi. Pedagogning vazifasi o‘quv ma‘lumotlarini umumlashtirish va to‘ldirishdan iborat.

*Kurs loyihalarini jamoaviy bajarish* odatiy, individual tarzda bajarishdan loyihaning kattaligi, o‘z tarkibiga nafaqat nazariy, texnik (tadqiqiy, hisob-kitob), balki amaliy (maket, modelni bajarish va hokazo) qismlarni ham olishi bilan farq qiladi. Buning uchun talabalarda zarur bo‘lgan tegishli jihozlardan (talabalar konstruktorlik byurosi, biznes-inkubatorlar) foydalana olish imkoniyatlariga ega bo‘lishlari lozim. Mazkur loyihani himoya qilish bir vaqtning o‘zida butun jamoa uchun tashkil etilishi mumkin va bunda har bir talaba o‘zining qismi bo‘yicha himoya qiladi. Baho jamlangan holda qo‘yilishi va barcha uchun bir xil bo‘lishi mumkin (jamoaviy mas‘uliyat tamoyili). Bundan tashqari jamoaning ishini joriy tarzda nazorat qilish nafaqat loyiha mazmunini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi, balki jamoada o‘zaro hamkorlik usullarini tahlil qilish hamda ishtirokchilarning psixologik va kasbiy (kognitiv) sohadagi kuchli va kuchsiz jihatlarni mustaqil baholashni ham nazarda tutadi.

*Idoraviy, rolli, tashkiliy-faoliyatli o‘yinlar* shakllantiriladigan kompetensiyalarni baholash hamda kmopleksli tarzda tekshirish vositalari sifatida namoyon bo‘ladi. Odatda, o‘yinlar u yoki bu masalani echishda musobaqalashayotgan bir necha jamoani shakllantirishni nazarda tutadi. Ularni amalga oshirish talabalarda jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, real kasbiy faoliyat sharoitlariga maksimal darajada yaqin bo‘lgan noodatiy vaziyatlardan chiqa olish imkoniyatlarini ochib beradi, Baholashning sanab o‘tilgan vositalaridan unumli foydalanishning muhim sharti ularni metodik ta‘minotini amalga oshirishdan iboratdir. U baholash jarayonini amalga oshirish sharoitlari hamda reglamenti, qo‘llaniladigan vositalar tavsifi, ishtirokchilar uchun yo‘riqnoma va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Metodik ta‘minotning shartli elementlari qatoriga shuningdek baholash shkalasi shaklida berilgan baholash mezonlari, topshiriqlarni baholash uchun dastlabki qiymatlar ham kiradi.

Baholashning sanab o‘tilgan va boshqa turlari, shakllari va metodlari (baholash usullari) o‘qitish metodikasining (texnologiyalarning) o‘ziga xos davomi bo‘lmog‘i,



shuningdek talabalarga ularning yutuqlari va kamchiliklarini yanada aniqroq tarzda anglab olish, shaxsiy faolligini yo'lga solish imkonini berish, lozim. O'qituvchilar esa o'quvchilarning faoliyatini kerakli tomonga yo'naltirib turishlari kerak.

Baholash vositalari fondini shakllantirishda hamda talabalar kompetensiyalarini baholash metodikasini takomillashtirish uchun, N.F. Efremovanning fikriga ko'ra, baholash jarayonining quyidagi standartlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi:

– kompetensiyalar shakllanganligi darajasini baholash ishlarini amalga oshirish davriyligi: kasbiy faoliyatni o'zlashtirishga kirishayotgan talabadan ta'limning har bir bosqichi va kasbiy faoliyat modulini to'liq o'zlashtirgan OTM bitiruvchisi darajasigacha bo'lgan davmi;

– baholash jarayonini ketma-ketlikka rioya qilgan holda o'tkazishni: kompetensiyalar modelida kompetensiyalar rivojlanishi progressiv holatda harakatlanayotganligiga e'tibor qaratish, baholash vositalari esa har bir bosqichda bu o'sishni hisobga olib borishlari lozim.

– ko'p darajalilik: baholash, talabaning o'z-o'zini baholashi, natijalarni muhokama qilish va kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha kompleks choralar ko'rish;

– barcha talabalar uchun foydalanilayotgan texnologiyalarning yagonaligi, bir xilligi, baholash natijalarini taqqoslash shartlarini bajarish [4].

Ta'lim oluvchilar kompetensiyalarini egallaganlik darajasini baholash BKM baholashning yangi innovatsion texnologiyalarini tadbiq etish ularni istiqbolli kasbiy faoliyatga tayyorlashning fundamental asosi hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Л.Д.Фокина. Методы оценивания компетенций студентов высшего профессионального образования//<https://infourok.ru/metodi-ocenivaniya-kompetencyi-studentov-vysshego-professionalnogo-obrazovaniya-3006272.html>

2. В.И.Байденко. Компетентный подход к проектированию государственных образовательных стандартов высшего профессионального образования (методологические и методические вопросы): Методическое пособие. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2005. – 114с.

3. А.М.Замятин. Система оценки компетенций студентов ВПО. Обзор достижений и нерешенных задач / Молодой учёный. // №5 (40). / С. 418-420.

4. Н.Ф.Ефремова. Подходы к оцениванию компетенций студентов первого курса приступающих к освоению основных образовательных программ Вестник ДГТУ, 2010, Т. 10.№ 5 (48) 369-777с.